



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI
2023-YIL YANVAR-IYUN OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



2023- yilning yanvar- iyun oylarida Namangan viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar- iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 11 012,7 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5% ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 10 115,5 mlrd. so'mni (105,6 %), o'rmon xo'jaligi- 858,9 mlrd. so'mni (102,8 %), baliqchilik xo'jaligi - 38,3 mlrd. so'mni (168,1%) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Namangan viloyatining ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyati qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari
hajmining o'sish sur'ati

01

Dehqonchilik
va chorvachilik,
ovchilik va ushbu
sohalarda ko'rsatilgan
xizmatlar-**105,6%**

02



O'rmon xo'jaligi -
102,8%

03




Baliqchilik xo'jaligi -
168,1%


Ma'lumot uchun

2023- yilning yanvar-iyun oylarida Mingbuloq (8,7 %) va Uychi (8,3 %)i tumanlar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatada yetakchi o'rinlarni egalladi.

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lari
umumiy hajmining taqsimlanishi (%)**



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2023- yilning yanvar- iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 91,9 %i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 7,8 %i o‘rmon xo‘jaligiga, 0,3 %i baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. 43,6%i dehqonchilkg, 55,6%i chorvachilkg, 0,8%i ovchilik va qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023- yilning yanvar- iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Yangiqoʻrgʻon tumani (1128,6 mlrd. soʻm) va Namangan sh. (1103,1 mlrd. soʻm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kosonsoy (575,5 mlrd. soʻm), Mingbuloq (637,7 mlrd. soʻm) va Chortoq tumalarini (658,9 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan yuqori oʻsish surʼatlari Mingbuloq (108,7 %) Uychi (108,3 %) Toʻraqoʻrgʻon (107,4 %) va Uchqoʻrgʻon (107,2 %) tumanlarida kuzatildi. Namangan sh. (101,1 %), Kosonsoy tumani (102,5 %) esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati**



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 11 012,7 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 5 618,6 mlrd. so'mni (105,7 %), chorvachilik mahsulotlari- 4 413,5 mlrd. so'mni (105,6 %) tashkil qildi.


**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**

44,0%
Dehqonchilik
mahsulotlari



56,0
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 71,9 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,2 % i - fermer xo'jaliklariga, 3,9 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2023-yilning yanvar - iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan tumanida (29,6 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Namangan shahrida (98,42%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kosonsoy tumanida (11,1 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Namangan shahrida (0,0 %), dehqon tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Kosonsoy tumanida (59,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Yangiqo'rg'on tumanida (0,6 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2023– yilning yanvar – iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4413,5 mlrd. soʻmni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 44,0 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, t.



Oʻsish surʻati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 392 517 t. donli ekinlar (2022– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 11,1 % ga kam) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,6 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna






Namangan viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
(o'sish sur'ati, % da)




Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 260 066 t. sabzavotlar (2022- yilning yanvar- iyungacha nisbatan 3,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish (tonna)






Namangan viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
(o'sish sur'ati, % da)




Kartoshka


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 132210,0 t. kartoshka (2022– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 2,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 12 554 t. poliz (2022–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha **poliz** yetishtirish hajmi, tonna




Meva va rezevorlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 75 167 t. meva va rezevorlar (2022– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 4,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezevorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezevorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha
meva va rezevorlar yetishtirish
hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 442 t. uzum (2022– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 15,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Namangan viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2023- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5 618,6 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 56,0 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 79,2 ming t. goʻsht (2022- yilning yanvar -iyunga nisbatan 8,5 % ga koʻp), 342,2 ming t. sut (3,0 % ga koʻp), 289,5 mln. dona tuxum (5,9 % ga koʻp), 859,0 t. jun (7,7 % ga kam) ishlab chiqarildi va 2108,2 t. baliqchilik (82,0 % ga koʻp) ovlandi

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 79,2 ming t. go'sht (2022- yilning yanvar-iyunga nisbatan 8,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Namangan viloyati bo'yicha go'sht yetishtirish (tirik vaznda tonna)






Namangan viloyati bo'yicha
yetishtirilgan go'sht o'sish
sur'ati, %da




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 342,2 ming t. sut (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 3,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Namangan viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi tonna






Namangan viloyati bo'yicha
yetishtirilgan sut o'sish
sur'ati, %da




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 289,5 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- iyungacha nisbatan 5,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 44,7 % i fermer xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keldi.




Namangan viloyati bo'yicha
olingan **tuxum**
hajmi, ming dona






Namangan viloyati bo'yicha yetishtirilgan tuxum o'sish sur'ati, %da




Baliqchilik


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2108,0 t. (2022- yilning yanvar - iyunga nisbatan 82,0 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 62,3 % i fermer xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Namangan viloyati bo'yicha ovlangan **baliqchilik** hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,2 % i fermer xo'jaliklariga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 13,3 % i fermer xo'jaliklariga, 86,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 37,5 % i fermer xo'jaliklariga, 34,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 746,0 ming taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 13,9 ming taga (1,9 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 244,2 ming taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 4,7 ming taga (1,9 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, sigirlarning 91,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 820,7 ming taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 20,0 ming taga (2,5 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 033 taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 215 taga (3,2 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, otlarning 86,3 % i dehqon va xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati bo'yicha otlarning umumiy **bosh soni**, bosh




2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6230,2 ming taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 335,32 ming taga (5,7 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 37,5 % i fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Namangan viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 69-227-84-82
• 69-227-84-83